

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/03.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**TANIBERDIYEV FARRUX RUSTAMOVICH**

**TURLI TARKIBLI IPLARNING SIFAT KO‘RSATKICHLARINI**  
**BAHOLASH USULINI TAKOMILLASHTIRISH**

**05.06.01- To‘qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**  
**DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent-2024**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferatining  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on technical sciences**

**Taniberdiyev Farrux Rustamovich**

Turli tarkibli iplarning sifat ko‘rsatkichlarini baholash usulini  
takomillashtirish..... 3

**Taniberdiyev Farrux Rustamovich**

Совершенствование метода оценки качества пряжи различной структуры .... 21

**Taniberdiyev Farrux Rustamovich**

Improving the method for assessing the quality of yarn of various structures ..... 41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

**Список опубликованных работ**

**List of published works..... 45**

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/03.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**TANIBERDIYEV FARRUX RUSTAMOVICH**

**TURLI TARKIBLI IPLARNING SIFAT KO‘RSATKICHLARINI**  
**BAHOLASH USULINI TAKOMILLASHTIRISH**

**05.06.01- “To‘qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari**  
**materialshunosligi”**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**  
**DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent-2024**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/T2691 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.titli.uz](http://www.titli.uz)) hamda «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xamrayeva Sanovar Atoyevna**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Jumaniyazov Qadam Jumaniyazovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Erkinov Zokirjon Erkinboy o'g'li**  
texnika fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**O'zbekiston tabiiy tolalar ilmiy-tadqiqot instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.T.08.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil 29 noyabr soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:100100, Toshkent sh., Shohjahon ko'chasi, 5. tel.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08, faks: (+99871) 253-36-17; e-mail: [titlp\\_info@edu.uz](mailto:titlp_info@edu.uz), Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi, 2-qavat, 222-xona).

Dissertatsiya bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (210-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent sh., Shohjahon-5, tel.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil 15 noyabr kuni tarqatildi  
(2024 yil 15 noyabrdagi 210 -raqamli reyestr bayonnomasi).



**X.H.Kamilova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, t.f.d.



**A.Z.Mamatov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, t.f.d.

**I.A.Nabiyeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, t.f.d.

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda sifatli iplarni ishlab chiqarishda energiya-resurstejamkor texnologiya va texnika vositalarini qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Jahon savdo tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilda to'qimachilik sanoatida turli aralash tarkibli iplarning global bozori 22,8 milliard dollarni tashkil etdi. 2027 yilga kelib, 32 milliard dollargacha o'sishi prognoz qilinmoqda.. Moliyaviy jihatdan eng intensiv sektor - bu yuqori sifatga ega bo'lgan iplarning ulushi 498 milliard yevro, 28,5% ni tashkil etdi. Dunyo miqyosida rivojlangan davlatlarda to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda to'qimachilik iplarning sifati, fizik-mexanik xossalarini yaxshilash va mustahkamligini oshirishga katta e'tibor qaratilayotganini<sup>1</sup> hisobga olsak, bu xususiyatlarning shakllanishida aralash tolalardan foydalanish va ularni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan to'qimachilik iplarning iste'mol xususiyatlarini yaxshilash uchun dunyo bozorida to'qimachilik mahsulotlarining raqobatbardoshligini muayyan darajada yuksalishi muhim ahamiyatga ega.

Jahonda to'qimachilik sanoatini rivojlantirishda sifatli kalava iplarni ishlab chiqarishning zamonaviy, avtomatlashgan, yuqori unumdorlikka ega bo'lgan texnika va texnologiyalarini takomillashtirish, iste'mol bozoridagi talab va taklif asosida mahsulotning yangi turlarini yaratish va assortimentini o'zgartirishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, kalava iplarning xossalarini yaxshilash, mustahkamligini oshirish uchun ip ishlab chiqarish jarayonida qo'llaniladigan yangi tolali tarkibni tanlash, ip olish jarayonida iplarning uzilishini kamaytirish, to'qimachilik mahsulotlarning iste'mol xususiyatlarini yanada oshirish, mustahkamligi yuqori bo'lgan yangi tarkibli kalava ip olishga alohida e'tibor berilmoqda.

O'zbekistonda yetishtirilayotgan mahalliy xomashyolardan foydalanib iste'mol xususiyatlariga ega bo'lgan sifatli to'qimachilik iplari ishlab chiqarishni tashkil etish, korxonalarda mavjud jihozlardan foydalanish, shuningdek mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida, jumladan, «...to'qimachilik sanoatini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish va eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish...»<sup>2</sup> boyicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifani amalga oshirishda, jumladan, to'qimachilik iplarini respublika sharoitida o'sadigan

<sup>1</sup> <https://geographyofrussia.com/legkaya-promyshlennost-mira>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risida Farmoni

xomashyolardan aralashma tolali ip olish asosida mustahkamligini oshirish, aralashma tolali ipning optimal tarkibi hamda ip ishlab chiqarishning resurstejamkor texnologiyasini qo'llash asosida to'qimachilik iplar sifatini oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-yanvardagi PF-2-son "Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2024-yil 1-maydagi PF-71-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy -huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurs-tejamkorlik» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Turli aralash tarkibili iplar olish va sifatini yaxshilashga taniqli mahalliy va xorijiy olimlardan V Gulich, R.H.Zeari, R. J.Goodland, N.N.Ivanova, N.N.Misko, A.Vatstl, D.A.Polyakova, A.P.Allenova, YE.K.Ganeman, O.F.Balatskiy, S.N.Bobilev, Z.S.Broyde, T.N. Vdovina, O.O.Veklich, YE.F.Rostov, V.T.Barshipolets, YE.R.Gubanova, E.V. Girusov, B.M.Danilishin, V.P.Kuxar, L.P.Metlova, V.L.Pilyushenko, P.M.Semenchenko, I.S.Tixotskaya, V.M.Tregobchuk, S.K.Xarichkov, V.Y.Shevchuk, N.V.Yarosh, A.N.Alekseyeva va boshqalar shug'ullanishgan.

Respublikamiz olimlaridan iplarning sifat ko'rsatkichlarini boshqarish va aralash tarkibli iplar olish uchun va ishlab chiqarishga kent qo'llash bo'yicha Q.G'.G'ofurov, Q.Jumaniyazov, R.Z.Burnashev, SH.Alishevlar, H.Alimova, A.E.Gulamov, S.L.Matismailov, M.SH.Xoliyarov va boshqalar shug'ullanishgan.

Yuqorida qayd etilgan tadqiqot ishlarida muammoning bir qismi qamrab olingan bo'lib, hozirgi kunda o'simlik mevasidan olingan tolani paxta tolasiga aralashtirib, sifatli to'quvchilik iplarini ishlab chiqarish, hamda sifat ko'rsatkichlarini aniqlash va qayta ishlashning optimal variantini tavsiya etish bo'yicha tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Jizzax politexnika instituti ilmiy ishlar rejasiga muvofiq 15 sentabr 2023 yildagi 44-raqamli "To'qimachilik mahsulotlari sifatini oshirish yo'llarini ishlab chiqish" mavzusidagi xo'jalik shartnomasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** turli tarkibli tolalarni emulsiyalash asosida olingan kalava iplarning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash va baholash usulini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:** kalava iplarning sifatini yaxshilash maqsadida turli tarkibli tolalarni emulsiyalashning yangi usulini ishlab chiqish;

turli tarkibli tolalardan olingan kalava iplarni baholash usulini takomillashtirish va bashoratlash;

turli tarkibli tolalardan olingan kalava iplarning fizik-mexanik xossalarini tahlil qilish;

to'liq omilli tajriba natijalari yordamida olingan kalava iplarining uzilish kuchi, solishtirma uzilish kuchi hamda uzilish kuchi bo'yicha variatsiya koeffitsiyentining regression modellarini olish.

**Tadqiqotning obykti sifatida** turli tarkibli tolalar aralashmasidan olingan kalava iplar va ularning sifatini aniqlashdagi sinov asboblari olingan.

**Tadqiqotning predmeti.** Fizik-mexanik xususiyatlari yaxshilangan turli tarkibli kalava iplarning sifat ko'rsatkichlarini aniqlash uslub va vositalari.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida tola, aralashma tarkibi emulsiyalash tarkibi turlicha bo'lgan kalava iplarning sifatini baholashda maxsus va zamonaviy usullar, to'liq omilli tajriba, sinov natijalarini qayta ishlash, regression model qurish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

kalava iplarining sifatini yaxshilash maqsadida turli tarkibli tolalarni emulsiyalashda suvga kollagen, poliakrilamid, glitserinni aralashtirib foydalanilgan holda ip mustahkamligini oshganligi aniqlangan;

turli tarkibli iplarning uzilish kuchi va uzilishdagi uzayishini aniqlash formulasi keltirib chiqarilgan va oldindan bashoratlash imkoniga ega bo'lgan ipning mustahkamligini aniqlash usuli takomillashtirilgan;

mahalliy turli tolalardan muayyan xossali yangi assortimentdagi ip olishda tarangligi, pishiqligi, kamerani aylanishlar tezlanishining qiymatlari to'la omilli tajriba usulu yo'rdamida aniqlangan;

olingan kalava iplarning uzilish kuchi, solishtirma uzilish kuchi hamda uzilish kuchi bo'yicha variatsiya koeffitsientining o'zaro bog'liqligini ifodalovchi regression bog'lanishlari kichik kvadratlar usulini qo'llash orqali ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

sifatli kalava ip olish uchun emulsiyalash va tola tarkibi bo'yicha optimal ulush miqdori tanlangan va eksperimental tadqiqotlar o'tkazilgan;

kalava iplarning uzilish kuchi va uzilishdagi uzayishini oldindan bashoratlash maqsadida formulalar keltirib chiqarilgan, uzilish kuchi va uzilishdagi uzayishini aniqlash usuli takomillashtirilgan;

tarkibi turlicha bo'lgan tolalarni aralashtirish jarayonida emulsiyani qo'llab, arqoq ipi olingan va ishlab chiqarishga tavsiya etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsiya ishida standart usul va vositalardan foydalanganligi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, emulsiyalash asosida arqoq iplarining sifat ko'rsatkichlarining yaxshilanganligi, tadqiqot natijalarini baholashning ma'lum mezonlarga muvofiqligi hamda nazariy tadqiqot natijalarining tajribaviy natijalarga mos kelishi va ishonchlilik ehtimolligi  $\pm 5\%$  kafolatli xatoligi bilan asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati arqoq iplarini baholash usuli takomillashtirilganligi va uzilish kuchini aniqlash mumkinligini oldindan bashoratlanganligi va nazariy jihatdan

asoslanganligi, turli aralash ulushlarda olingan arqoq iplarining uzilish kuchi, solishtirma uzilish kuchi hamda uzilish kuchi bo'yicha variatsiya koeffitsiyentining o'zaro bog'liqligini ifodalovchi regression modellar olinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati to'qimachilik iplarni baholashda takomillashtirilgan usul yordamida iplarning uzilish kuchini nazariy aniqlash imkoni yaratilganligi, emulsiyalash asosida turli tarkibli kalava iplarning sifat ko'rsatkichlarining yaxshilanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Turli foizlar miqdorida aralash tolali kalava iplar olish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

taklif etilayotgan turli tarkibli tolalarni emulsiyalash asosida kalava iplar olish va mustahkamligini baholash usulini "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tassarufidagi korxonalarda, shu jumladan, "Sagdiana" MCHJ (Buxoro shahri) to'qimachilik korxonasida amaliyotga joriy qilindi (O'zto'qimachilik sanoat uyushmasi 2023 yil 08 maydagi 03/13-916-son ma'lumotnomasi). Natijada, paxta tolasini 45% ga tejash va sifatini oshirish imkoniyati yaratilgan;

taklif etilayotgan turli tarkibli tolalarni emulsiyalash asosida kalava iplar olish va uzilish kuchini baholashning takomillashtirilgan usuli "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tassarufidagi "OYGUL PLYUS" MCHJ (Buxoro shahri) korxonasida joriy qilindi (O'zto'qimachilik sanoat uyushmasi 2023 yil 08 maydagi 03/13-916-son ma'lumotnomasi). Natijada, ishlab chiqarish sharoitida olingan kalava iplarning sifat ko'rsatkichlariga nisbatan taklif etilayotgan variant bo'yicha emulsiyalash asosida turli tolalar tarkibidan olingan arqoq iplarining sifat ko'rsatkichlari ishlab chiqarish korxonasidagi nisbatan 20-22% ga yaxshilash imkoniyati yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari jami 11 ta, jumladan 5 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha 16 ta ilmiy maqolalardan iborat, shulardan 5 tasi O'zbekiston Respublikasi OAK jurnallarida, 5 ta xorijiy ilmiy jurnallarda, shu jumladan 2 ta Scopus jurnalida va texnik yechim yangiligi va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi xuzuridagi Intellektual mulk agentligining ixtiroga patenti olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsad va vazifalarni belgilaydi, uning obekti va predmetini shakllantiradi, tadqiqotning respublika fan va texnikasini rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligini ko'rsatadi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalarini bayon qiladi, olingan natijalarning ishonchliligini asoslaydi, nazariy ochib beradi va olingan natijalarning amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini amalda tatbiq etish, nashr etilgan maqolalar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumotlar berilgan.



Dissertatsiyaning “**Tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiyotlar sharhi va masalalarning qo‘yilishi**” deb nomlangan birinchi bobida turli tarkibli iplarni ishlab chiqarishda sifatiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash bo‘yicha bajarilgan ishlar tahlili, yigirishda iplarning uzilish sabablari va uni bartaraf etish bo‘yicha bajarilgan ishlar tahlili, turli tarkibli iplarning sifat ko‘rsatkichlarini baholashga asoslangan ilmiy ishlar tahlili, jahonda yangi tola va ip olishda tabiiy tola manбайдan foylanish, turli aralash tarkibli iplarni emulsiyalash usullariga asoslangan ishlar tahlil etildi. Ilmiy manbalarni tahlil qilish asosida tadqiqotning maqsad va vazifalari aniqlandi.

Dissertatsiya ishining “**Tadqiqot obyekti, tola va kalava iplarning sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash uslubi**” deb nomlangan ikkinchi bobida eksperimental tadqiqot olib borish obekti, turli tarkibli tolalar aralashmasidan ip ishlab chiqarish usuli, tola va iplarning strukturasi va fizik-mexanik xossalarini aniqlash uslublari, paxta va rogoz tolalarini aralashtirishda polimer kompozitsiya asosida emulsiyalash usulini qo‘llash, turli tarkibli tolalar aralashmasidan olingan iplarning sifat ko‘rsatkichlarini baholash usulini takomillashtirish, tadqiqot natijalarini matematik statistika va ehtimollar nazariyasi qonunlari bo‘yicha baholash bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.


Turli tarkibli tolalar aralashmasidan olingan iplarning sifat ko‘rsatkichlarini baholash usuli takomillashtirildi va olingan tadqiqot natijalari tahlil etildi.

Ipning hisobiy uzilish kuchi quyidagi formula orqali topiladi:


$$F_{yk (xucobuy)} = \frac{L_{ip} \cdot Q}{T_{ip} - G} = \frac{500 \cdot 25,0}{(37,0 - 0,7) \cdot 0,96} = 358,7 \text{ sN}$$

$$F_{yk (maxribavuy)} = 360,5 \text{ sN}$$


Ipning hisobiy uzilish kuchini aniqlash formulasi asosida kalava iplarning uzilish kuchi va uzayish deformatsiyasi orasidagi bog‘lanish grafiklari 1-4-rasmlarda keltirilgan.



1-rasm. 1,25%li emulsiya bilan ishlov berilgan kalava ipning uzilish kuchi va uzayish deformatsiyasi orasidagi bog‘lanish.




2-rasm. 1,50%li emulsiya bilan ishlov berilgan kalava ipning uzilish kuchi va uzayish deformatsiyasi orasidagi bog‘lanish



**3-rasm. 1,75%li emulsiya bilan ishlov berilgan kalava ipning uzilish kuchi va uzayish deformatsiyasi orasidagi bog‘lanish.**


Ipnining hisobiy uzilish kuchi bilan tajribaviy orasidagi farq 0,66-1,42%ni tashkil etdi.



**4-rasm. 2,00%li emulsiya bilan ishlov berilgan kalava ipning uzilish kuchi va uzayish deformatsiyasi orasidagi bog‘lanish.**

Dissertasiya ishining **“Tolalar strukturasi o‘rganish va sifatini baholash”** deb nomlangan uchinchi bobida tolalar strukturasi infraqizil spektroskopiya usulida aniqlangan va tahlil etilgan, tolalar strukturasi skanerli elektron mikroskopda o‘rganilgan va tahlil etilgan, paxta tolasini va rogoz o‘simligi mevasidan olingan tolaning buramdorligi va fizik-mexanik xossalari o‘zgarishi keltirilgan.


Paxta tolasining tuzilishi aniqlash borasida tadqiqot ishlari olib borildi. Rogoz o‘simligi mevasidan ajratib olingan tolaning strukturasi o‘rganish maqsadida uning infraqizil spektroskopik tahlili paxta tolasining infraqizil spektrlari bilan qiyosiy tahlil bo‘yicha o‘rganildi (5-rasm).



**5-rasm. Rogoz o‘simligidan olingan tolaning infraqizil spektri.**

Olingan tajriba natijalari va fizik-kimyoviy tahlillar rogoz o‘simligi mevasidan olingan tolaning paxta tolasidan strukturasi bo‘yicha deyarli farq qilmasligini, ammo tarkibi bo‘yicha farq qilishini ko‘rsatdi, ya‘ni paxta tolasini tarkibiga nisbatan yangi tola tarkibida selluloza bo‘lmagan komponentlarni ko‘pligi aniqlandi.

Paxta va rogoz o‘simligi mevasidan olingan tolalarning tuzilishi skanerli elektron mikroskopda tahlil etildi (6-rasm).



**6-rasm. Rogoz o‘simligi tolasining tuzilishi.**

Rogoz o‘simligi mevasidan olingan tolalarning morfologik tahlilidan ko‘rinib turibdiki, tola yuzasida bug‘inlar ko‘pligi sababli, yigirish jarayonida paxta tolasini bilan ilashish kuchi yaxshi bo‘lishini ta‘minlaydi.

Rogoz o‘simligi mevasidan olingan bug‘imlar sonini aniqlash borasida tadqiqot ishlari olib borildi va 1 sm da 130-140 bug‘imlar borligi aniqlandi.

Rogoz o‘simligi tolasida bug‘imlarning mavjudligi natijasida paxta tolasini bilan aralashtirish natijasida ularning ilashuvchanligi shunchalik yaxshi bo‘lishi kuzatildi. Natijada, ulardan sifatli, tekis va notekislik ko‘rsatkichlari past bo‘lgan iplar olish mumkinligi asoslandi.

Dissertatsiya ishining **“Turli tarkibli tola aralashmalaridan olingan kalava iplarining sifat ko‘rsatkichlarini kompleks baholash”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida aralashma tarkibi turlicha bo‘lgan iplarining sifat ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi, bir davrli cho‘zilish deformatsiyasi aniqlangan, sifat ko‘rsatkichlari kompleks baholangan, iplarni emulsiyalashdan keyingi sifat ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi keltirilgan, iplarining sifat ko‘rsatkichlarini baholashda to‘liq omilli eksperiment o‘tkazilgan va yillik iqtisodiy samaradorlik hisoblangan.

Iplarining sifat ko‘rsatkichlari aniqlandi. Tadqiqot natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

**1-jadval**

**Aralashma va emulsiyalash tarkibi turlicha bo‘lgan kalava iplarining sifat ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi**



t/r	Ko‘rsatkichlar	Aralashma tarkibi,%				O‘zDSt 2321-2011 standarti bo‘yicha	
		90% paxta tolasini bilan 10% paxta tolasini ikkilamchi material resurslari aralashmasi	83% paxta tolasini bilan 17% rogoza o‘simligi mevasidan olingan tolalar aralashmasi	73% paxta tolasini bilan 27% rogoza o‘simligi mevasidan olingan tolalar aralashmasi	63% paxta tolasini bilan 37% rogoza o‘simligi mevasidan olingan tolalar aralashmasi	haqiqiy	farqi,%
<b>Emulsiya tarkibi 1,25%</b>							
1.	Iplarning chiziqiy zichligi, teks	37,0	37,2	37,5	37,4		
2.	Iplarning chiziqiy zichligi bo‘yicha varia-siya koeffitsiyenti, %	3,4	2,9	3,1	3,0		

3.	Ipning buralishlar soni, br/m	796	787	769	778		
4.	Ipning buralishlar soni bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti, %	9,7	8,8	8,2	7,8		
5.	Ipning uzilish kuchi, cN	325,18	351,42	375,4	400,35		
6.	Ipning uzilish kuchi bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti, %	9,16	8,93	8,45	8,73	11,5	24,0
7.	Ipning solishtirma uzilish kuchi, cN/teks	8,6	9,25	9,82	10,43	10,0	4,4
8.	Ipning uzilishdagi uzayishi, %	9,51	6,85	8,82	10,07		
9.	Ipning uzilishdagi uzayishi bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti, %	6,29	6,20	5,80	4,32		
<b>Emulsiya tarkibi 1,50%</b>							
1.	Ipning chiziqiy zichligi, teks	37,5	37,0	37,2	37,5		
2.	Ipning chiziqiy zichligi bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti, %	3,1	2,8	2,7	3,4		
3.	Ipning buralish-lar soni, br/m	786	784	794	780		
4.	Ipning buralishlar soni bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti, %	8,8	9,0	9,4	8,9		
5.	Ipning uzilish kuchi, cN	358,6	380,60	388,40	340,20		
6.	Ipning uzilish kuchi bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti, %	8,20	8,15	8,10	8,68	11,5	28,6
7.	Ipning solishtirma uzilish kuchi, cN/teks	9,56	10,29	10,44	9,07	10,0	15,3
8.	Ipning uzilishdagi uzayishi, %	9,46	7,24	8,60	9,20		
9.	Ipning uzilishdagi uzayishi bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti, %	5,78	5,80	6,00	5,46		
<b>Emulsiya tarkibi 1,75%</b>							
1.	Ipning chiziqiy zichligi, teks	37,0	37,2	37,5	37,5		
2.	Ipning chiziqiy zichligi bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti, %	2,8	3,5	3,2	3,8		
3.	Ipning buralishlar soni, br/m	784	782	784	780		
4.	Ipning buralishlar soni bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti, %	8,1	9,2	9,6	9,8		
5.	Ipning uzilish kuchi, cN	380,40	355,60	350,40	350,20		
6.	Ipning uzilish kuchi bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti, %	7,54	8,36	8,42	9,02	11,5	34,5
7.	Ipning solishtirma uzilish kuchi, cN/teks	10,28	9,56	9,34	9,33	10,0	3,3
8.	Ipning uzilish-dagi uzayishi, %	9,60	7,80	8,40	9,0		
9.	Ipning uzilishdagi uzayishi bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti, %	5,20	5,60	5,78	5,52		

Emulsiya tarkibi 2,00%							
1.	Ipning chiziqiy zichligi, teks	37,5	37,2	37,4	37,2		
2.	Ipning chiziqiy zichligi bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti, %	3,9	3,7	3,8	4,1		
3.	Ipning buralish-lar soni, br/m	782	780	784	788		
4.	Ipning buralishlar soni bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti, %	9,2	9,9	10,2	10,4		
5.	Ipning uzilish kuchi, cN	350,20	346,20	338,6	338,3		
6.	Ipning uzilish kuchi bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti, %	8,10	8,42	8,56	9,16	11,5	29,6
7.	Ipning solishtirma uzilish kuchi, cN/teks	9,34	9,31	9,05	9,09	10,0	6,4
8.	Ipning uzilish-dagi uzayishi, %	9,20	7,40	8,20	8,60		
9.	Ipning uzilishdagi uzayishi bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti, %	6,10	5,80	6,14	5,78		

Aralashma va emulsiyalash tarkibi turlicha bo'lgan kalava iplarning sifat ko'rsatkichlarini tadqiq etishdan olingan sinov natijalari shuni ko'rsatdiki, emulsiyalash tarkibining ortishi bilan kalava iplarning chiziqiy zichligi bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti 5,1% dan 20,0% gacha, buralishlar soni bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti 2,2% dan 11,9% gacha kamayganligi, uzilish kuchi 5,8% dan 7,5% gacha oshganligi, uzilish kuchi bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti 0,8% dan 9,2% ga kamayganligi, solishtirma uzilish kuchi 0,3% dan 17,6% gacha oshganligi, uzilishdagi uzayishi bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti 1,4% dan 31,3% gacha kamayganligi aniqlandi.

Shu bilan bir qatorda iplarning notekislik ko'rsatkichlari va nuqsonlar miqdorini aniqlash borasida tadqiqot ishlari olib borildi. Uning uchun, turli tarkibli aralashmalardan iborat iplarning sifat ko'rsatkichlari Uster asbobida aniqlandi va olingan sinov natijalari 7-8-rasmlarda keltirildi.





▨ - эмульсия таркиби, 1,25%; ▣ - эмульсия таркиби, 1,50%; ▤ - эмульсия таркиби, 1,75%; ▥ - эмульсия таркиби, 2,00%

7-rasm. Aralashma va emulsiyalash tarkibi turlicha bo'lgan kalava iplarning notekislik ko'rsatkichining o'zgarishi.

8-rasm. Aralashma va emulsiyalash tarkibi turlicha bo'lgan kalava iplarning tukdorlik bo'yicha variatsiya koeffitsiyentining o'zgarishi.

Olingan sinov natijalari tahlilidan ip yigirish korxonalarida arqoq sifatida ishlatiladigan sifatli kalava iplar olish uchun ishlab chiqarishga 1-variant bo'yicha olingan kalava ip uchun 1,75% lik emulsiya tarkibi, 2-variant bo'yicha olingan kalava ip uchun 1,50% lik emulsiya tarkibi, 3-variant bo'yicha olingan kalava ip uchun 1,50% lik emulsiya tarkibi, 4-variant bo'yicha olingan tola aralashmasidan olingan kalava ip uchun 1,25% lik emulsiya tarkibi tavsiya etildi.

Undan tashqari, turli tola tarkibli aralashmalardan olingan iplarning bikrlilik ko'rsatkichi va ishqalanishga chidamliligi laboratoriyada aniqlandi va 9-10-rasmlarda keltirildi.



1-emulsiya tarkibi, 1,25%; 2-emulsiya tarkibi, 1,50%; 3-emulsiya tarkibi, 1,75%;  
4-emulsiya tarkibi, 2,00%.

**9-rasm. Aralashma va emulsiyalash tarkibi turlicha bo'lgan kalava iplarning bikrlilik ko'rsatkichining o'zgarishi.**

**10-rasm. Aralashma va emulsiyalash tarkibi turlicha bo'lgan kalava iplarning ishqalanishga chidamliligining o'zgarishi.**


Sinov natijalaridan ko'rinib turibdiki, emulsiyalash tarkibi 1,25% bo'lganda, 4-variantdagi aralashmali kalava ip, emulsiyalash tarkibi 1,50% bo'lganda, 2 va 3-variantlardagi aralashmali kalava ip, emulsiyalash tarkibi 1,75% bo'lganda, 1-variantdagi aralashmali kalava iplarning bikrlilik va ishqalanishga chidamlilik ko'rsatkichlari yuqori ekanligi aniqlandi.

Kalava iplarning bir davrli cho'zilish deformatsiyasiga aralashma va emulsiyalash tarkibining ta'siri tadqiq etildi va olingan sinov natijalari 2-jadvalda keltirildi.

## 2-jadval

### Kalava iplarning bir davrli cho'zilish deformatsiyasiga aralashma va emulsiyalash tarkibining ta'siri

t/r	Ko'rsatkichlar	Aralashma tarkibi, %			
		90% paxta tolasi bilan 10% paxta tolali ikkilamchi material resurslari aralashmasi	83% paxta tolasi bilan 17% rogoza o'simligi mevasidan olingan tolalar aralashmasi	73% paxta tolasi bilan 27% rogoza o'simligi mevasidan olingan tolalar aralashmasi	63% paxta tolasi bilan 37% rogoza o'simligi mevasidan olingan tolalar aralashmasi
<b>Emulsiya tarkibi 1,25%</b>					
1.	Qayishqoq deformatsiya	0,45	0,48	0,50	0,55
2.	Elastik deformatsiya	0,39	0,34	0,37	0,36
3.	Qoldiq (plastik) deformatsiya	0,16	0,18	0,13	0,09
<b>Emulsiya tarkibi 1,50%</b>					
1.	Qayishqoq deformatsiya	0,51	0,56	0,53	0,50
2.	Elastik deformatsiya	0,34	0,34	0,36	0,36
3.	Qoldiq (plastik) deformatsiya	0,15	0,10	0,11	0,14
<b>Emulsiya tarkibi 1,75%</b>					
1.	Qayishqoq deformatsiya	0,54	0,50	0,51	0,48
2.	Elastik deformatsiya	0,35	0,36	0,33	0,37
3.	Qoldiq (plastik) deformatsiya	0,11	0,14	0,16	0,15
<b>Emulsiya tarkibi 2,00%</b>					
1.	Qayishqoq deformatsiya	0,49	0,48	0,46	0,47
2.	Elastik deformatsiya	0,37	0,35	0,36	0,37
3.	Qoldiq (plastik) deformatsiya	0,14	0,17	0,18	0,16




<b>I</b>	<b>II</b>	<b>III</b>	<b>IV</b>
----------	-----------	------------	-----------

Tadqiqot natijalaridan ko‘rinib turibdiki, emulsiyalash tarkibi 1,25% bo‘lganda, 4-variantdagi aralashmali kalava ip, emulsiyalash tarkibi 1,50% bo‘lganda, 2 va 3-variantlardagi aralashmali kalava ip, emulsiyalash tarkibi 1,75% bo‘lganda, 1-variantdagi aralashmali kalava iplarning bir davrli cho‘zilish deformatsiyasining qayishqoq va elastik ulushi yuqori ekanligi aniqlandi.

Tola va emulsiyalash tarkibi turlicha bo‘lgan kalava iplarning sifat ko‘rsatkichlari kompleks baholandi va olingan sinov natijalari asosida kompleks baholash diagrammasi 11-rasmda hamda qiyosiy gistogrammasi 12-rasmda keltirildi.

**11-rasm. Emulsiya tarkibi 1,25% bo‘lgan kalava iplarning sifat ko‘rsatkichlarini kompleks baholash diagrammasi.**



**12-rasm. Emulsiya tarkibi 1,25% bo‘lgan kalava iplarning sifat ko‘rsatkichlarini kompleks baholash qiyosiy gistogrammasi**

Qolgan emulsiya tarkibli kalava iplarning sifat ko‘rsatkichlari shu tarzda baholandi.

Xulosa qilib aytganda, emulsiya tarkibi 1,25% bo‘lganda 63% paxta tolasi bilan 37% rogoza o‘simligi mevasidan olingan tolalar aralashmasidan olingan kalava, emulsiya tarkibi 1,5% bo‘lganda 73% paxta tolasi bilan 27% rogoza o‘simligi mevasidan olingan tolalar aralashmasidan olingan kalava ip, emulsiya tarkibi 1,75% bo‘lganda 73% paxta tolasi bilan 27% rogoza o‘simligi mevasidan olingan tolalar aralashmasidan olingan kalava ip, emulsiya tarkibi 2,0% bo‘lganda 83% paxta tolasi bilan 17% rogoza o‘simligi mevasidan olingan tolalar aralashmasidan olingan kalava ip iavsiya etildi.

Turli tarkibli tolalar aralashmasidan olingan iplarning sifat ko‘rsatkichlarini baholashda to‘liq omilli eksperiment o‘tkazildi. Uchta omillar uchun 2<sup>3</sup> to‘liq omilli eksperimentning rejlash tirish matritsasi tuzildi.



Aralashma va emulsiyalash tarkibi turlicha bo'lgan kalava iplarning sifat ko'rsatkichlarini baholashda to'liq omilli eksperiment o'tkazildi. Bunda kirish parametrlari sifatida quyidagi bir-biriga bog'liq bo'lmagan texnologik omillar (3-jadval)da keltirilgan va chiquvchi parametrlar sifatida iplarning uzish kuchi- $U_1$ , solishtirma uzish kuchi- $U_2$  va uzish kuchi bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti- $U_3$  tanlangan.

### 3-jadval

#### Kirish parametrlarining o'zgarish sathi va oralig'i

t/r	Nomlanishi	Kod	O'zgarish sathi			O'zgarish oralig'i
			- 1	0	+ 1	
1.	$F$ - ip tarangligi, cN	$x_1$	35	38	41	3
2.	$K$ pishitish, bur/m	$x_2$	778	788	798	10
3.	$n$ - kameraning aylanish tezlanishi, ayl/min	$x_3$	90000	100000	110000	10000

Optimal tarkibli ip deb topilgan 73% paxta va 27% rogoz o'simligi mevasidan olingan tolalar aralashmali kalava iplarning solishtirma uzish kuchining uch marotaba qaytalanishdagi  $2^3$  to'liq omilli eksperimentning rejlishtirish matritsasi 4 -jadvalda keltirilgan.

### 4-jadval

#### 73% paxta va 27% rogoz o'simligi mevasidan olingan tolalar aralashmali 1,5% emulsiya tarkibli kalava ipning $Y_1$ - kalava ipning uzish kuchi, cN

i	Omillar				Chiqish parametrining ko'rsatkichlari, $Y_{uv}$		
	$x_0$	$x_1$	$x_2$	$x_3$	$U_1$ -uzish kuchi, sN	$U_2$ -solishtirma uzish kuchi, sN/teks	$U_3$ - uzish kuchi bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti, %
1.	+	-	-	-	344	9	9
2.	+	+	-	-	360	8	8
3.	+	-	+	-	364	4	10
4.	+	+	+	-	360	5	9
5.	+	-	-	+	388	10	7,0
6.	+	+	-	+	356	6	8
7.	+	-	+	+	358	8	8
8.	+	+	+	+	354	7	9


Hisobiy natijalar asosida ko'p omilli regressiya modellari olindi.

$$Y_1 = 360,5 - 2,5x_1 - 1,5x_2 + 3x_3 + 0,5x_1x_2 - 6x_1x_3$$

$$Y_2 = 7,125 + 0,375x_1 + 0,375x_2 - 0,855x_1x_2 + 0,575x_2x_3 - 1,0x_1x_2x_3$$

$$Y_3 = 8,5 + 0,5x_2 + 0,4x_1x_2 + 0,5x_2x_3 + 0,25x_1x_2x_3$$

73% paxta va 27% rogoz o'simligi mevasidan olingan tolalar aralashmali 1,5% emulsiya tarkibli kalava ipning  $Y_1$  -uzish kuchi, sN,  $Y_2$  -solishtirma uzish kuchi, sN/tex,  $Y_3$  - uzish kuchi bo'yicha variatsiya koeffitsiyentining o'zgarishi quyidagi 13-rasmda keltirilgan.



**13-rasm. 73% paxta va 27% rogoz o‘simligi mevasidan olingan tolalar aralashmali 1,5% emulsiya tarkibli  $Y_1$  -uzish kuchi, sN,  $Y_2$  -solishtirma uzish kuchi, sN/tex,  $Y_3$  -kalava ipning uzish kuchi bo‘yicha variatsiya koeffitsiyenti, % o‘zgarishi.**

Bunda regression modellar  $F_{R1}=5,68$ ;  $F_{R2}=3,4$ ;  $F_{R3}=3,16 < 8,69$ ga teng bo‘lgani uchun, gipoteza chiqish parametrlariga olingan modellar ahamiyatli, rad etilmaydi.

Turli tarkibli tolalar aralashmasidan olingan kalava iplarning sifat ko‘rsatkichlarini baholashda o‘tkazilgan to‘liq omilli eksperiment bo‘yicha kalava iplarning uzish kuchi va uzishdagi uzayishi asosida tajriba natijalarini qayta ishlashda kiruvchi va chiquvchi parametrlari asosida regressiya tenglamalari tuzildi. Dispersiyalarning bir-biridan o‘zaro farqlanish darajasini tekshirish uchun Koxren mezonidan foydalanildi. Regressiya tenglamasi asosida chiziqli modelning adekvatligini tekshirish uchun esa Fisher mezoni bo‘yicha qoldiq dispersiyasi aniqlandi va regressiya koeffitsiyentlari bo‘yicha baholashda Styudent mezonidan foydalanildi. Omillar intervali orqali chiquvchi parametrlarning mos ratsional qiymatlari aniqlandi.

Turli tola tarkibli kalava iplarni ishlab chiqarish samaradorligining oshishi hisobiga yillik iqtisodiy samaradorlik 27% rogoz mevasidan olingan tolasini 73% paxta tolasiga aralastirib, paxta tolasini tejash evaziga 12476,647 ming so‘m qo‘shimcha samaraga erishildi.

## XULOSA

1. Yigirishda iplar uzilishining davriylik qonuni tadqiqini olib borish maqsadida adabiyotlar tahlilini bajarib, ilgari surgan g'oyalarni asos qilib iplar uzilishi prognozida matematikaning ehtimollar nazariyasi qonunlari, Puassonning taqsimot qonuni, Binominal-inkor qonunining qanday holatlarda qo'llanishi mumkinligi aniqlandi.

2. Kuzatishlar vaqtida ipning uzilish sabablari sonini foizdagi ifodasini hisoblash, pnevmomexanik yigirish mashinasida kalava ipning uzilishini kuzatish kartasi tayyorlash, yigirish mashinasi tajribadan keyingi kalava iplar uzilishini kamaytirgan holda samaraga erishish imkoniyatlari o'rganildi.

3. Rogoz o'simligining xususiyatlari o'rganildi va undan tola olish hamda to'qimachilik sanoatida xomashyo sifatida foydalanish imkoniyati mavjudligi aniqlandi va tadqiqot vazifalari belgilandi.

4. Tadqiqot obyekti sifatida yig'ish jihozlari, 100% paxta tolasidan, rogoz tolasidan xomashyo sifatida foydalanish imkoniyatidan foydalanib, 60% paxta tolasini bilan 40% rogoza o'simligidan olingan tola aralashmasi, 65% paxta tolasini bilan 35% rogoza o'simligidan olingan tola aralashmasi, 75% paxta tolasini bilan 25% rogoza o'simligidan olingan tola aralashmalaridan olingan 37,0 tekisli kalava iplarning fizik-mexanik xususiyatlari TTESI qoshidagi "CentexUz" va "UZTEX TASHKENT" MCHJ korxonasiidagi sinov laboratoriyalarida olib borildi va kalava iplarning sifat ko'rsatkichlari "Uster Tester-5" asbobida aniqlandi.

5. Xomashyoni titish-tozalash jarayonida emulsiyalash uchun 10%-li kollagen eritmasi (200 ml); glitserin (10 ml), 0,5%-li poliakrilamid eritmasi (40 ml) va 1,75 litr suv tarkibli polimer kompozitsiya tavsiya etildi.

6. Paxta tolasini va rogoz o'simligini mevasidan olingan tolaning sifat ko'rsatkichlari aniqlandi. Olingan natijalar tahlilidan ko'rinib turibdiki, paxta tolasining ko'rsatkichlariga nisbatan rogoz o'simligini mevasidan olingan tolaning uzilish kuchi 8,9% ga, solishtirma uzilish kuchi 3,66% ga, shtapel massa uzunligi 54,7% ga past ekanligi aniqlandi.

7. Aralashma va emulsiyalash tarkibi turlicha bo'lgan kalava iplarning sifat ko'rsatkichlarini tadqiq etishdan olingan sinov natijalariga binoan, emulsiyalash tarkibining ortishi bilan kalava iplarning chiziqiy zichligi bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti 5,1% dan 20,0% gacha, buralishlar soni bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti 2,2% dan 11,9% gacha kamayganligi, uzilish kuchi 5,8% dan 7,5% gacha oshganligi, uzilish kuchi bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti 0,8% dan 9,2% ga kamayganligi, solishtirma uzilish kuchi 0,3% dan 17,6% gacha oshganligi, uzilishdagi uzayishi bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti 1,4% dan 31,3% gacha kamayganligi aniqlandi.

8. Kalava iplarning notekislik ko'rsatkichlariga aralashma va emulsiyalash tarkibining ta'siri natijasida, emulsiyalash tarkibi 1,25% bo'lganda 1-variant bo'yicha olingan kalava iplarning ko'rsatkichlariga nisbatan kalava iplarning notekisligi 7,8% dan 15,2% gacha, variatsiya koeffitsiyenti 7,7% dan 14,8% gacha oshganligi, tukdorligi 5,6% dan 24,9% gacha, tukdorligi bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti

5,6% dan 27,4% gacha kamayganligi, emulsiyalash tarkibi 1,50% bo'lganda kalava iplarning notekisligi 4,3% dan 11,7% gacha, variatsiya koeffitsiyenti 0,2% dan 4,2% gacha oshganligi, tukdorligi 3,8% dan 13,1% gacha, tukdorligi bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti 5,8% dan 9,4% gacha kamayganligi, emulsiyalash tarkibi 1,75% bo'lganda kalava iplarning notekisligi 2,1% dan 21,3% gacha, variatsiya koeffitsiyenti 7,6% dan 14,8% gacha oshganligi, tukdorligi 0,6% dan 21,3% gacha, tukdorligi bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti 7,6% dan 14,1% gacha kamayganligi, emulsiyalash tarkibi 2,00% bo'lganda kalava iplarning notekisligi 3,7% dan 14,8% gacha, variatsiya koeffitsiyenti 6,3% dan 8,6% gacha oshganligi, tukdorligi 1,1% dan 2,0% gacha, tukdorligi bo'yicha variatsiya koeffitsiyenti 1,0% dan 5,2% gacha kamayganligi aniqlandi.

9. Emulsiya va aralashma tarkibi turlicha bo'lgan kalava iplarning bikrlilik ko'rsatkichi va ishqalanishga chidamliligining o'zgarishi natijalaridan ko'rinib turibdiki, emulsiyalash tarkibi 1,25% bo'lganda, 4-variantdagi aralashmali kalava ip, emulsiyalash tarkibi 1,50% bo'lganda, 2 va 3-variantlardagi aralashmali kalava ip, emulsiyalash tarkibi 1,75% bo'lganda, 1-variantdagi aralashmali kalava iplarning bikrlilik va ishqalanishga chidamlilik ko'rsatkichlari yuqori ekanligi aniqlandi.

10. Tola va emulsiyalash tarkibi turlicha bo'lgan kalava iplarning sifat ko'rsatkichlarini kompleks baholash asosida emulsiya tarkibi 1,25% bo'lganda 63% paxta tolasi bilan 37% rogoza o'simligi mevasidan olingan tolalar aralashmasidan olingan kalava, emulsiya tarkibi 1,5% bo'lganda 73% paxta tolasi bilan 27% rogoza o'simligi mevasidan olingan tolalar aralashmasidan olingan kalava ip, emulsiya tarkibi 1,75% bo'lganda 73% paxta tolasi bilan 27% rogoza o'simligi mevasidan olingan tolalar aralashmasidan olingan kalava ip, emulsiya tarkibi 2,0% bo'lganda 83% paxta tolasi bilan 17% rogoza o'simligi mevasidan olingan tolalar aralashmasidan olingan kalava ip tavsiya etildi.

11. Turli tarkibli tolalar aralashmasidan olingan kalava iplarning sifat ko'rsatkichlarini baholashda to'liq omilli eksperiment o'tkazildi. kalava iplarning uzilish kuchi va uzilishdagi uzayishi asosida tajriba natijalarini qayta ishlashda kiruvchi va chiquvchi parametrlari asosida regressiya tenglamalari tuzildi. Dispersiyalarning bir-biridan o'zaro farqlanish darajasini tekshirish uchun Koxren mezonidan foydalanildi. Regressiya tenglamasi asosida chiziqli modelning adekvatligini tekshirish uchun esa Fisher mezoni bo'yicha qoldiq dispersiyasi aniqlandi va regressiya koeffitsiyentlari bo'yicha baholashda Styudent mezonidan foydalanildi. Omillar intervali orqali chiquvchi parametrlarning mos ratsional qiymatlari aniqlandi.

12. Turli tola tarkibli kalava iplarni olishda samaradorligining oshishi hisobiga kutiladigan yillik iqtisodiy samaradorlik 27% rogoz mevasidan olingan tolasini 73% paxta tolasiga aralastirib, paxta tolasini tejash evaziga kutiladigan yillik iqtisodiy samaradorlik 12476,647 ming so'mni tashkil etdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/03.12.2019.Т.08.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ИНСТИТУТЕ  
ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ  
ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

**ТАНИБЕРДИЕВ ФАРРУХ РУСТАМОВИЧ**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ОЦЕНКИ ПОКАЗАТЕЛЕЙ  
КАЧЕСТВА ПРЯЖИ РАЗНОЙ СТРУКТУРЫ**

**05.06.01- Материаловедение текстильного и легкопромышленного  
производства**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ташкент-2024**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей Аттестационной Комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2022.1.PhD/T2691.**

Диссертация выполнена в Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещен на веб-сайте Ученого совета при Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности ([www.titli.uz](http://www.titli.uz)) и на информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Хамраева Сановар Атоевна**  
доктор технических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Жуманиязов Кадам Жуманиезович**  
доктор технических наук, профессор

**Эркинов Зокиржон Эркинбой угли**  
доктор технических наук, доцент

**Ведущая организация:**

**Научно-исследовательский институт  
натуральных волокон Узбекистана**

Защита диссертации состоится «29» ноября 2024 года в 14<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.T.08.01 при Административном корпусе Ташкентского института текстильной и легкой промышленности, 2 этаж, каб. 222 по адресу: 100100, г.Ташкент, ул. Шохжахон 5. тел: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08, факс: (+99871) 253-36-17; e-mail: [titlp\\_info@edu.uz](mailto:titlp_info@edu.uz), административный корпус Ташкентского института текстильной и легкой промышленности, 2 этаж, каб. 222

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского института текстильной и легкой промышленности (зарегистрирована под № 210). Адрес: 100100, г.Ташкент, ул.Шохжахон 5., тел: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08.

Автореферат диссертации разослан «15» ноября 2024 года.  
(реестр протокола рассылки № 210 от «15» ноября 2024 года).



**Х.Х. Камилова**

Председатель Научного совета по присуждению  
ученых степеней, д.т.н.



**А.З. Маматов**

Ученый секретарь Научного совета по  
присуждению ученых степеней, д.ф.т.н.

**И.А. Набиева**

Председатель Научного семинара при научном совете по  
присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Одно из ведущих мест в мире занимает использование энергосберегающих технологий и технических средств в производстве высококачественных нитей. По данным Всемирной торговой организации, в 2023 году мировой рынок пряжи различного смешанного состава в текстильной промышленности составил 22,8 миллиарда долларов. Прогнозируется рост до 32 миллиардов долларов к 2027 году. Самый интенсивный финансовый сектор - это высокое качество нитей, доля которых составила 498 миллиардов евро, который составляет 28,5%.

Учитывая, что при производстве текстильной продукции в развитых странах мира уделяется большое внимание улучшению качества, физико-механических свойств и повышению прочности текстильной пряжи, формирование этих свойств требует использования и внедрения в практику смешанных волокон. В связи с этим для улучшения потребительских свойств текстильной пряжи имеет важное значение повышение конкурентоспособности текстильной продукции в определённой степени на мировом рынке.

В развитии текстильной промышленности в мире ведутся научно-исследовательские работы, направленные на совершенствование современной, автоматизированной, высокопроизводительной техники и технологий, производства качественной пряжи, создание новых видов и изменение ассортимента продукции на основе спроса и предложения на потребительском рынке. В связи с этим особое внимание уделяется выбору нового волокнистого состава, применяемого в процессе производства пряжи, снижению обрыва пряжи, значительному повышению потребительских свойств текстильной продукции, получению нитей новой структуры с высокой прочностью.

Принимаются широкомасштабные меры, направленные на организацию производства качественных текстильных нитей с потребительскими свойствами с использованием местного сырья, выращиваемого в Узбекистане, использование имеющегося на предприятиях оборудования, а также повышение экспортного потенциала отечественных производителей, достигаются определенные результаты. Определены важные задачи по новой Стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы, в том числе по «... модернизации и ускоренному развитию текстильной промышленности, последовательному развитию производства текстильной продукции и значительному увеличению экспортного потенциала»... В реализации этой задачи важное значение приобретают, в частности, повышение прочности текстильных нитей на основе получения смешанного волокна из сырья, выращиваемого в условиях республики, повышение качества текстильных нитей на основе оптимального состава смешанного волокна и применения ресурсосберегающих технологий производства пряжи.

Настоящее диссертационное исследование служит в определенной степени для реализации задач, определенных в постановлениях Президента Республики Узбекистан за № ПФ-2 от 10 января 2023 года «О мерах по поддержке

